

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

MIRZAXALIKOV BOBIR BAXTIYOROVICH

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI TARTIBGA
SOLISHDA MOLIYAVIY SIYOSATNING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomilasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich

Kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslarini takomillashtirish 3

Мирзахаликов Бобир Бахтиёрович

Совершенствование методологических основ финансовой политики в регулировании программ по сокращению бедности 31

Mirzaxalikov Bobir Bakhtiyorovich

Improving the methodological foundations of financial policy in regulating poverty reduction programs 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 67

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

MIRZAXALIKOV BOBIR BAXTIYOROVICH

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI TARTIBGA
SOLISHDA MOLIYAVIY SIYOSATNING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomilasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Iqt959-son bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Tashkent International Universityda bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslaxatchi:	Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Shernayev Akbar Akmirzayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Vosikov Ulug'bek Alisher og'li iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" 10 soat 10dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (99895) 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (04 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (99895) 131-55-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "13" 09 dagi 50 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

A.R. Norov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kambag'allikni qisqartirish muammosi global kun tartibida saqlanib qolmoqda. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchisi ham kambag'allikni qisqartirishga qaratilgani alohida ta'kidlangan. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda 700 milliondan ortiq kishi yuqori kambag'allik chegarasida yashamoqda, ularning 2/3 qismi Afrikaning Sub-sahroi mintaqalariga to'g'ri keladi¹. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish faqat iqtisodiy o'sish hisobidan emas, balki davlat dasturlarining samarali amalga oshirilishi orqali ta'minlanishi ham alohida qayd etiladi². Jumladan, hozirgi va istiqboldagi kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi muvozanat, kambag'al insonlarning keng doirasi bilan ishlash (eng ko'p insonga yordam berish) hamda davomli ravishda kambag'allik darajasini monitoring qilish va kambag'allik sabablarini bartaraf etish bo'yicha uzoq muddatli dasturlar va kambag'allik alomatlarini qisqa muddatda engillashtiruvchi chora-tadbirlar o'rtasidagi farqqa e'tibor berish kabilar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Jahonda kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini amalga oshirishda daromad manbalari va kambag'allik sabablarini inobatga olish asosida ijtimoiy tenglikni ta'minlashi, ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirishda oila a'zolarining sonini oshib borishini inobatga olish orqali davlat dasturlariga moliyaviy yuklamani tartibga solish, ish haqi va uy xo'jaliklari daromadlarining mehnat unumdorligiga uyg'unlashtirish orqali mehnat bozori dinamikasining kambag'allikni qisqartirish dasturlari samaradorligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish dasturlari subsidiyalar va grantlar asosida ijtimoiy himoyani moliyalashtirish orqali moliyaviy dastaklarning ijtimoiy samaradorligi aholi turmushi sifatini barqarorlashtirish kabi yo'nalishlar ustuvorlik qilmoqda. Bu borada, moliyaviy siyosatning metodologik asoslari bu choralarning mazmunini, yo'nalishlarini ular amalga oshirilishidagi ustuvorliklarni belgilab olish uchun qo'llanadi. Metodologik jihatdan qaysidir davlat bu borada inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratayotgan bo'lsa, boshqasida ushbu toifadagi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi kuchliroq. Bu, albatta, kambag'allik muammosi bilan kurashayotgan davlatlarning iqtisodiy salohiyatiga bog'liqligi bilan ifodalanmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimi ishlab chiqildi va u muvoffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda

¹ Ending Poverty <https://www.un.org/en/global-issues/ending-poverty>

² Barder O. M. What is poverty reduction? //Center for Global Development Working Paper. – 2009. – №. 170

kambag'allikning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni birlashtirib turuvchi ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlari kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlari samaradorligini oshirish, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlari amalga oshirish, kambag'allik o'lchamining takomillashtirilgan ko'rsatkichlari majmuiyini ishlab chiqish. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada mintaqada amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida iqtisodiy resurslarni yo'naltirish orqali global kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosat muhim o'rin tutadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi, 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-son «Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida»gi farmonlari, 2020-yildagi 26-mart PQ-4653-son «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi, 2024-yil 2-sentyabrdagi PQ-330-son «Kambag'allikdan farovonlik sari» dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi, 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son «Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son «Aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ularni samaradorligini tizimli baholashga qaratilgan nazariy va uslubiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va reytingi yuqori oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirildi. Moliya siyosati va xalqaro miqyosda kambag'allikni qisqartirish masalalarini o'rganish bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlar olib borildi.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi – <https://www.uchicago.edu>; <https://www.harvard.edu>; <https://www.cam.ac.uk>; <https://www.wur.nl>; <https://www.waseda.jp>; <http://www.kmu.ac.kr>; <https://www.ntu.edu.sg>; <https://www.tsinghua.edu.cn>.

Eng tez-tez o'rganiladigan jihatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va tengsizlikni kamaytirish uchun fiskal va soliq vositalaridan foydalanishdir. Xususan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Harvard University (AQSH), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Lund University (Shvesiya), Wageningen University and Research (Niderlandiya), Waseda University (Yaponiya), Keimyung University (Janubiy Koreya), Nanyang Technological University (Singapur), Tsinghua University (Xitoy) kabi davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kambag'allik qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning nazariy jihatlar va uning migrasion siyosat bilan bog'liqligi iqtisodiy, huquqiy asoslari tadqiq etilgan va ularning ustuvorliklari asoslab berilgan (Lund University, Shvesiya); ijtimoiy shartnomaning kam ta'minlangan oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi roli hamda ushbu omildan samarali foydalanish yo'nalishlari ishlab chiqilgan (Harvard University, AQSH); davlatning ijtimoiy himoya dasturlarining vujudga kelishi va ularning rivojlanish bosqichlari belgilangan va asoslangan (University of Cambridge, Buyuk Britaniya); inson kapitalini rivojlantirishni moliyalashtirishda asosida kambag'allikni qisqartirish ustuvorliklari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan (Wageningen University and Research, Niderlandiya); ijtimoiy sohada turli ijtimoiy ro'yxatdagi aholini ijtimoiy himoya qilish tendensiyalari aniqlangan va baholangan (Waseda University, Yaponiya); kambag'allikni qisqartirishda davlatning ijtimoiy himoya elementlarining o'ziga xosliklari va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari taklif etilgan (Keimyung University, Janubiy Koreya); ijtimoiy himoyaning o'ziga xos jihatlari asoslab berilgan (Nanyang Technological University, Singapur); ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda ijtimoiy-demografik omillarini e'tiborga olish yo'nalishlari aniqlangan va baholangan (Tsinghua University, Xitoy).

"Kambag'allikni kamaytirishda soliq-byudjet siyosatining o'rni" hisoboti kam va o'rta daromadli mamlakatlarga kambag'allikka qarshi kurashda qanday samarali fiskal siyosat yordam berishiga urg'u beradi. XVF (2019). "Barqaror rivojlanish uchun soliq-byudjet siyosati" barqaror rivojlanishni ta'minlashda soliq-byudjet siyosatining o'rni va uning kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liqligi o'rganiladi. OYeCD (2021). "Inklyuziv o'sish va kambag'allikni kamaytirish" inklyuziv o'sishni va kambag'allikni kamaytirishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ishlab chiqish va tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar. IMF (2019). "Fiscal Policies for Sustainable Development." Barqaror rivojlanishni ta'minlashda soliq-byudjet siyosatining o'rni va uning kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liqligi o'rganiladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarni ko'rib chiqish kambag'allikka qarshi kurashda moliyaviy vositalar va metodologiyalardan foydalanishning turlicha yondashuvlarini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonning moliyaviy siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hukumat dasturlari konteksti va kelajakda oldini olish kerak bo'lgan ilg'or tajribalar va xatolarni aniqlash ustuvorlik kasb etmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslaridan

foydalanish ilmiy-uslubiy jihatlari bir kator xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan o'rganilgan. Bulardan A. Smit , O. Kont, E. Dyurkgeym, G.Spenser, V.Pareto, A.Michel, M.Toman va J.Pezzey, S.Rowntreye, S. Fisher, R. Dornbush, R.Shmalenzi, A. Sen, S. Girdoso, A. Teixeira, Ye. Jensen, Xillman Ari L., Djenkner Eva kabilarni alohida ta'kidlash lozim⁴.

Yaqin xorij mamlakatlarida kambag'allik muammolari, bozor isloxotlariga bog'liq ravishda M. Alekseychuk, S.Bobilev, A.Zdravomislov, G.Prudenskiy, M.Rutkevich, A.Xarchev, M.Maskovskiy, G.Zaslavskaya, V.Yadov, S.Chernishyov, Z.Golenkova, N.Naumova, I. Prigojin, O. Yanitskiy asarlarida yangi jamiyat shakllanishi muammosi sifatida, Z. Galenkova, V.Manchenko, A.Nadlova, V.Pintim asarlarida hayot sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirish sifatida tadqiq etilgan⁵.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan bazi bir masalalarni Aripov O.A., Ahmedov T.M., Vosiqov U.A., Kasimova G.A., D.A.Sholdorov, Qirg'izov D., Maxmudov O.X., Mustafaqulov Sh.I., Raxmonov D.A., Sattorov I.O., Uzakov K.P., O'razboyev U.,

⁴ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М., 1962. Конт О. Дух позитивной философии. СПб., 1910; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М., 1991; Спенсер Г. Основания социологии. А.Мичел , М.Томан ва Ж.Пеззей М.Томан, J.Pezzey. 2005, "Sustainability and its economic interpretations", in R. David Simpson, Michael A. Toman and Robert U. Ayres (ed.), Scarcity and Growth Revisited, Resources for the Future Press, Washington, DC, USA, pp. 121-141 Rowntree, S. B. (1908). Poverty: A study of town life. London: MacMillan. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – Москва, Дело-ЛТД, 1995. 864 с. [Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Economics. Moscow, Delo-LTD, 1995. 864 p. (In Russ.) Sen, A. (1983), "Poor, reldtively speaking", – Oxford Economic Papers, 35, 153-169; Girdoso S. M. & Teixeira, A., C. (2020). The Focus on Poverty in the Most Influential Journdls in Economics: A Bibliometric Andysis of the "Blue Ribbon" Journds. Poverty dnd Public Policy, 12 (1), p. 10-42. Jensen, E. (2009). Teaching with Poverty in Mind: What Being Poor Does to Kids' Brdins dnd What Schools Can Do About It. Хиллман Ари Л., Дженкнер Эва. Образование детей в бедных странах / Вопросы экономики 33. – Международный валютный фонд. 2004. –16с

⁵ Алексейчук М.С. Чистые сбережения как индикатор оценки устойчивости регионального развития // Регион: экономика и социология, № 3. 2008. С. 67-77., Бобылев С.Н. Индикаторы устойчивого развития: региональное измерение. Пособие по региональной экологической политике. - М.: Акрополь, ЦЭПР, 2007. Здравомыслов А.Г. Потребности, интересы, ценности. М., 1986; Пруденский Г.А. Время и труд. М., 1965; Он же. Проблемы рабочего и нерабочего времени. М., 1972; Руткевич М.Н. Общественные потребности, система образования, молодежь. М., 1998; Харчев А.Г., Мацковский М.С. Современная семья и ее проблемы (социально-демографическое исследование). М., 1978; Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. М., 1998. Хрестоматия нового российского самосознания / Под ред. С.Б. Чернышева. В 3-х т. М., 1995; Яницкий О.Н. Альтернативная социология // Социологический журнал. 1994. №1; Он же. Индустриализм и инвайроментализм // СОЦИС. 1994. №3. Голenkova З.Т. Трансформация социальной структуры и стратификация российского общества. М., 1996; Наумова Н.Ф. Психологические механизмы свободного выбора / Системные исследования. Ежегодник. М., 1983; Она же. Социологические и психологические аспекты целенаправленного поведения. М., 1988; Клямкин И.М., Лапкин В.В., Пантин В.И. Политический курс Ельцина: предварительные итоги // ПОЛИС. 1994. №3. Kovalenko NV Poverty as a socio-economic category. State building. 2007. № 2. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/DeBu_2007_2_10. Гарашук О. В., Куценко В. I. Контент фахової освіти: аналіз, оцінка, перспективи. Економічний аналіз: зб. наук. праць. Тернопіль: «Економічна думка». 2016. Том 24. № 1. С. 7–15. И. Ансофф Стратегическое управление. М.: Экономика, 1989, 519 с.; Гапоненко А.Л. Стратегия социально-экономического развития: страна, регион, город. -М.: Изд-во РАГС, 2001.- 224 с. Парсаданов Г.А. Планирование и прогнозирование социальноэкономической системы страны (теоретико-методологические аспекты): Учебное пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.- 223 с.. Ю.В.Яковца. Теоретические основы и модели долгосрочного макроэкономического прогнозирования /под ред. - М.: МФК, 2004. Лексин В.Н., Швецов А.Н. Государство и регионы. Теория и практика государственного регулирования территориального развития. -М., 2000.

Usmonov B.B., Xasanov R.R., Xoliqova O.O., Ernazarova N.N. tomonidan mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etilgan⁶.

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyoti, oilalarda kambag‘allikni qisqartirish hamda bandligini oshirish masalalari bo‘yicha tadqiqot olib boranganlar. Xususan, M.Kalonov “kambag‘allik” tushunchasini shu kungacha “yopiq mavzu” bo‘lib kelganligini va u “kam ta‘minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta‘kidlagan⁷. Iqtisodchi olim R.Xasanov ta‘qiqlashi bo‘yicha “O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olinishi kerakligini qayd etib o‘tadi⁸.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Tashkent International University ilmiy tadqiqot rejasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazida IL21101893-sonli “Kambag‘allikni kamaytirish va haoli turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁶ Aripov O.A., Xolmirzayev A.X. Qambag‘allik, uning turlari va unga qarshi kurashish. Journal of marketing, business and management (jmbm). Volume 1, ISSUE 4 (June) ISSN: 2181-3000 Page 204-208. www.jmbm.uz.; Ahmedov T. <https://china.mfa.uz/news/203?language=uz>; Vosiqov U.A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag‘allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish: i.f.d.... avtoreferat. – T.: KIUT, 2025. – 76 b.; Kasimova G.A., D.A.Sholdorov, M.B.Abdurasulov “O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish mexanizmini takomillashtirish” (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025, 215 bet ; Qirg‘izov D., Baxromova D. Barqaror rivojlanish yo‘lida ijtimoiy soha statistikasi islohotlari. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining «O‘zbekiston statistika axborotnomasi» ilmiy elektron jurnali. 2-son 2020 yil.; Qosimova G. Mamlakatimizda kambag‘allik darajasini kamaytirish yo‘llari. Scientific progress volume 2 | ISSUE 7 | 2021. ISSN: 2181-1601. Page 808. www.scientificprogress.uz.; Maxmudov O.X. Oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. <http://www.iqtisodiyot.tsue.uz/267-276> b.; Mustafaqulov Sh. I.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil, 68 b.; Raxmonov D., Javliyev N. Inklyuziv iqtisodiy rivojlanish asosida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash //Iqtisodiyot va ta‘lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – B. 168-174.; Sattorov I.O. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash: kambag‘allikni qisqartirish nazariyasi va amaliyoti [Matn] / I.O. Sattorov. – Toshkent: «Tafakkur nashriyoti», 2024. – 292 b.; Uzakov K.P. Kambag‘allikni qisqartirishda aholi bandligini ta‘minlash Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-579-594.; O‘razboyev U. Kambag‘allik chegarasi va uni bartaraf etish choralari. <https://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar/300-kambaallik-chegarasi-va-uni-bartaraf-etish-choralari.html>.; Usmonov B.B. Aholi turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025. – 124 bet;; Xasanov R.R., G.A.Alimova, O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashning milliy mezonlari Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti <https://elibrary.ru/Copyright>: © 2024 by the authors; Xoliqova O.O. Hududlarda aholining kam ta‘minlanganlik darajasini pasaytirishning statistik indikatorlar tizimi. Scientific progress volume 2 | ISSUE 6 | 2021. ISSN: 2181-1601. 1509- 1521- 6. www.scientificprogress.uz.; Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Ernazarova.pdf. Kalonov M. “Kambag‘allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?” «Xalq so‘zi» gazetasining 2021 yil 11 fevral 30-soni.

⁷ Kalonov M. “Kambag‘allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?” «Xalq so‘zi» gazetasining 2021 yil 11 fevral 30-soni.

⁸ Xasanov R.R., G.A.Alimova, O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashning milliy mezonlari Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti <https://elibrary.ru/Copyright>: © 2024 by the authors;

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslarini takomillashtiriga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari qo‘yidagilardan iborat:

kambag‘allik muammosi tadqiq etilishining nazariy asoslarini asosiy yondashuvlar va nazariy qarashlarni o‘rganish va ularni tasniflash;

moliyaviy siyosatga uyg‘unlashtirilgan holda kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini ishlab chiqilishi tashkiliy mexanizmini o‘rganib chiqish;

kambag‘allikning ijtimoiy va iqtisodiy sabablarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini va ta‘sirini asoslash;

kambag‘allikning ko‘rsatkichlarini va ularni o‘lchash metodlarini tadqiq etish;

kambag‘allikni qisqartirish asosiy usullarini ilmiy tahlil etish;

kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini zarurligi va yo‘nalganligini ilmiy asoslash;

kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini mintaqada amalga oshirilishni xususiyatlarini ilmiy tahlil etish;

kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini ishlab chiqarishdagi va taqsimotdagi munosabatlarga ta‘sirini tahlil qilish;

tadbirkorlik rivojlanishining kambag‘allikni qisqartirish dasturlari bilan o‘zaro sinergetik ta‘sirini o‘rganish.

Tadqiqot ob‘yekti kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirish va tartibga solish tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirish va tartibga solishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida analiz, sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, multinomial logistic regression, qiyoslash, korrelyasiya va regressiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini daromad manbalari va kambag‘allik sabablarini kompleks inobatga olish asosida ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga qaratilgan mexanizm taklif etilgan;

barqaror ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish maqsadida ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish jarayonida oila a‘zolari sonining oshib borishini hisobga olish mexanizmini joriy etish asosida davlat dasturlariga tushadigan moliyaviy yuklamani tartibga solish hamda mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish taklif etilgan;

aholining barqaror daromad manbalarini kengaytirish, inson kapitaliga investisiyalarni kuchaytirish maqsadida ish haqi va uy xo‘jaliklari daromadlarini mehnat unumdorligiga uyg‘unlashtirish orqali mehnat bozori dinamikasining samarali tartibga solinishi va kambag‘allikni qisqartirish dasturlarining ta‘sirchanligini oshirish asoslangan;

kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini subsidiyalar va grantlar asosida moliyalashtirish orqali ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish hamda moliyaviy dastaklarning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘li bilan aholining

daromadlari barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi konseptual yondashuv asoslangan;

hududda kambag'allikni qisqartirish jarayonlarining ehtimoliy yo'nalishlarini aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni maqsadli rejalashtirishda Namangan viloyatida kambag'allik darajasining o'zgarish tendensiyalarini ifodalovchi 2027-yilga qadar o'rta muddatli prognoz ssenariylari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kambag'allikning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni birlashtirib turuvchi ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlari kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlari samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan tahlil etilgan;

jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlari amalga oshirish orqali yumshatib borishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri aniqlashtirilgan;

kambag'allikni o'lchamning takomillashtirilgan ko'rsatkichlari majmuyi taklif etilgan;

kambag'allikni qisqartirish dasturlari amalga oshirilishi moliyaviy mexanizmini takomillashtirish buyicha takliflar ishlab chiqilgan;

korrelyasiya modeli asosida mehnat unumdorligi, ish haqi va oila daromadlari bog'lanishlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'siri buyicha taxlil etilgan;

kambag'allikni qisqartirish dasturlarida e'tiborni qancha taqsimlashdan ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga ko'proq qaratish lozimligi asoslangan;

mintaqada kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarida ijro etilishi samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar asoslab berilgan;

kambag'allikni qisqartirish dasturlarining mintaqada bajarilishi monitoringini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat statistika agentligi, Davlat soliq qo'mitasi, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar aniq me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlariga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining xisobot shakllari tahliliga bog'langanligi hamda ishlab chiqilgan takliflarini amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslaridan O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning foydalanishning mexanizmlarini yanada takomillashtirishga doir yondashuvlarni ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatlarda mo'ljallangan kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning foydalanishning strategiyasini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiy yo'nalishlari oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Moliya", "Davlat moliyasi", "Soliq va soliqqa tortish", "Moliya bozori", "Investisiya loyihalari tahlili" singari fanlardan o'quv

dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruzalar matni, keys-stadilar, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kambag'allikni qisqartirish dasturlarini daromad manbalari va kambag'allik sabablarini kompleks inobatga olish asosida ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmiga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" qarorining 1-ilova 2-bandi va "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-son farmonining 1-ilova 2-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 14-iyuldagi 01-06/306-son ma'lumotnomasi, Taraqqiyot strategiyasi markazining 2025-yil 17-iyuldagi 645 son dalolatnomasi). Natijada, kam ta'minlangan oilalarning ulushi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda infratuzilma bilan ta'minlanish darajasi past bo'lgan eng og'ir ahvoldagi 1000 ta mahallalar ro'yxati shakllantirilgan, ularga respublika darajasidagi rahbarlar biriktirildi va 2024-yilda bandlikka ko'maklashish dasturlari orqali 65 ming ishsiz shaxslar qamrab olingan;

barqaror ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish maqsadida ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish jarayonida oila a'zolari sonining oshib borishini hisobga olish mexanizmini joriy etish asosida davlat dasturlariga tushadigan moliyaviy yuklamani tartibga solish hamda mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 125-sonli "Oilalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan ko'mak choralarini ko'rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 14.07.2025-yil 01-06/306 sonli ma'lumotnomasi, Taraqqiyot strategiyasi markazining 2025-yil 17-iyuldagi 645-son dalolatnomasi). Natijada, kambag'al oilalar bilan ijtimoiy shartnoma tuzish tartibi takomillashtirilib, ularning real ehtiyojlariga moslashtirilgan, adolatli va barqaror ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirilgan;

aholining barqaror daromad manbalarini kengaytirish, inson kapitaliga investisiyalarni kuchaytirish maqsadida ish haqi va uy xo'jaliklari daromadlarini mehnat unumdorligiga uyg'unlashtirish orqali mehnat bozori dinamikasining samarali tartibga solinishi va kambag'allikni qisqartirish dasturlarining ta'sirchanligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 12-ilova ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining

14.07.2025-yil 01-06/306-sonli ma'lumotnomasi, Taraqqiyot strategiyasi markazining 2025-yil 17-iyuldagi 645-son dalolatnomasi). Natijada, 2025-yil 1-apreldan boshlab Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga mehnat bozorida ehtiyojni inobatga olgan holda Kasbiy ko'nikmalar markazlarida yangi kasb yo'nalishlari tashkil etmoqda;

kambag'allikni qisqartirish dasturlarini subsidiyalar va grantlar asosida moliyalashtirish orqali ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish hamda moliyaviy dasturlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'li bilan aholining daromadlari barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi konseptual yondashuvga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-oktyabrdagi 691-sonli "Mahalla etiligi» tavsiyasi asosida kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 14.07.2025-yil 01-06/306 sonli ma'lumotnomasi, Taraqqiyot strategiyasi markazining 2025-yil 17-iyuldagi 645-son dalolatnomasi). Natijada, qarz oluvchilarga nisbatan belgilangan muvofiqlik mezonlari takomillashtirilgan;

hududda kambag'allikni qisqartirish jarayonlarining ehtimoliy yo'nalishlarini aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni maqsadli rejalashtirishda Namangan viloyatida kambag'allik darajasining o'zgarish tendensiyalarini ifodalovchi 2027-yilga qadar o'rta muddatli prognoz ssenariylariga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.04.2022-yildagi 211-sonli 2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qaroridagi "Xududlarda aholi bilan o'tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan takliflar va aholini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan mavjud muammolarni tezkor bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy tadbirlarni o'z ichiga olgan «yo'l xaritasi»"da belgilangan chora tadbirlarni ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 14.07.2025-yil 01-06/306 sonli ma'lumotnomasi). Natijada 2027-yilga borib, 1-bo'yicha Namangan viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlari, 2024-yilga nisbatan 271,5 ming so'mga oshishi viloyatda qambag'allik darajasi 6,5% ga etishiga olib keladi, bu o'z navbatida maxalliy byudjetdan kambag'allikni qisqartirish moliyalashtirish mablag'larini 2027-yilga kelib 1432,8 mlrd. so'mga kamayishini ta'minlasa, 2-bo'yicha qambag'allik darajasi o'zgarishining ko'p omilli prognoz qiymatlariga ko'ra, viloyatda qambag'allik darajasi 2024-yilga nisbatan 2027-yilga borib, 5,9%ni tashkil etilishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan, 5 respublika va 10 xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Doktorlik dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy

ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 215 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilganligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining sinovdan o'tishi yoritib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kambag'allikni qisqartirish dasturlarining konseptual-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kambag'allik muammosi tadqiq etilishining nazariy asoslari, kambag'allik muammosi namoyon bo'lishi yo'nalishlari, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kambag'allik muammosi xususiyatlari o'rganilgan.

Kambag'allik muammosini ilmiy o'rganish tarixi taxminan bir yarim asrni tashkil qiladi. Ammo XIX asrdan ancha oldin mutafakkirlar odamlar o'rtasidagi munosabatlar tabiati, ko'pchilik odamlarning og'ir taqdiri, jamiyatning boy va kambag'allarga bo'linishi va bu hodisalarning sabablari haqida o'ylab kelishgan. Buni osonlikcha tushuntirish mumkin, chunki hech ikkilanmaslan, kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ichida eng dolzarb va har bir inson manfaatlariga ta'sir qiluvchi muammo deb hisoblash mumkin. Har bir mamlakatda kambag'allikni oldini olish uchun yo'naltirilgan moliyaviy siyosat mazmuni bitta, u ham bo'lsa, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini ta'minlashga erishish.

A.Michel, M.Toman va J.Pezzey barqaror rivojlanishning birinchi maqsadiga nisbatan shunday fikr yuritgan, ya'ni: odamlar yoki uy xo'jaliklari o'zlarining farovonliklarini maksimal darajada oshirishga harakat qilishadi, deb o'ylagan, ammo bu vaqtinchalik farovonlik yoki foyda olish vaqtining bir muncha yig'indisi ham bo'lishi mumkinligi, odamlar har lahzada har xil iste'mol turlaridan, shu jumladan sotiladigan va sotilmaydigan tovar(ish va xizmat)lardan foydalanishlari mumkinligi to'g'risidagi fikrlari natijasida, barqaror rivojlanishga bog'lagan⁹.

1-jadval

O'zbekistonda hududlar bo'yicha YaIM jon boshiga ko'rsatkichlari¹⁰

⁹ M.Toman, J.Pezzey. 2005, "Sustainability and its economic interpretations", in R. David Simpson, Michael A. Toman and Robert U. Ayres (ed.), Scarcity and Growth Revisited, Resources for the Future Press, Washington, DC, USA, pp. 121-141

¹⁰ Davlat statistik agentligi ma'lumotlari

Hudud	YaIM jon boshiga (mln. so‘m)	Izoh
Toshkent shahri	40–45 mln	Eng yuqori, sanoat va xizmatlar markazi
Navoiy viloyati	35–40 mln	Sanoat, tabiiy resurslar hisobiga
Andijon, Farg‘ona, Namangan	18–25 mln	Qishloq xo‘jaligi va engil sanoat
Qashqadaryo, Surxondaryo	17–22 mln	Qishloq joylar ko‘p, infratuzilma past
Qoraqalpog‘iston	15–20 mln	Iqtisodiy imkoniyat cheklangan

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi – bozor iqtisodiyotiga o‘tish, savdo erkinligi, xususiylashtirish va davlat nazoratining qisqarishi – kambag‘allik muammosining xususiyatlarini murakkablashtiradi. O‘zbekistonda 2017–2024 yillarda YAIM o‘sishi 5,6–6,5% ni tashkiletgan bo‘lsa-da, daromad va imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi kambag‘allikning asosiy xususiyati ekanini ta’kidlaydi. Masalan O‘zbekistonda YAIM jon boshiga ko‘rsatkichlari hududlar bo‘yicha ancha farq qiladi (1-jadvalga qarang).

Mahalliy byudjetdagi mablag‘larga zaruriyat asosan tumanlarda va kambag‘al aholi ulushi yuqoriligi ham aynan tumanlarda kuzatilmoqda. Demak, aynan tumanlarda kambag‘allikni qisqartirish dasturlari etarli darajada moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi lozim. Kambag‘allikni qisqartirish dasturlari shahar va qishloq joylarda turlicha ta’sir va mexanizm orqali amalga oshiriladi, chunki bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar farq qiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Shahar va qishloq joylarda kambag‘allikni qisqartirish dasturlarining farqi¹¹

Tartib	Shahar	Qishloq
Daromad manbalari	Xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, zavod-fabrikalarda ish	Qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, dehqonchilik
Kambag‘allik sabablari	Ishsizlik, yoshlar orasida malaka etishmasligi	Mahsulot sotishda qiyinchilik, infratuzilma muammolari
Asosiy dasturlar	Kasbga o‘qitish, mikrobyuznes uchun grantlar, IT markazlar	Dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash, texnika, urug‘, subsidiya
Infratuzilma	Yaxshiroq: bank, transport, internet bor	Etarli emas: yo‘l, sug‘orish, bozorga chiqish cheklangan
Shartnoma mexanizmi	Kasbiy ta’lim va tadbirkorlik yoki ishga joylashish	Agro biznesga yo‘naltirish, chorva yoki texnika berish

Xulosa qilib qo‘yidagilarni aytish mumkin: shaharlarda kambag‘allikni qisqartirish dasturlari — kasbga o‘rgatish, startap va IT loyihalarga mo‘ljallangan. Qishloqda esa — dehqonchilik, chorvachilik va agrobiznesni qo‘llab-quvvatlash asosida amalga oshiriladi. YaIM jon boshiga ko‘ra ham shaharlarda imkoniyat ko‘proq, shuning uchun dasturlar ham hududiy ehtiyojlarga mos ravishda yangilanib borishi kerak.

Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy erkinlashuv turli oqibatlariga olib keldi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Jahon mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish dasturlari¹²

Mamlakat	Erkinlashuv davri	Kambag'allikning asosiy xususiyatlari	Natijalar
Chili	1970–1980	Daromad tengsizligining oshishi (Gini indeksi 0.50 dan 0.57 ga ko'tarildi).	Kambag'allik darajasi (40% dan 38% ga) sezilarli kamaymadi, tengsizlik kuchaydi.
Polsha	1990–2000	Ish o'rinlarining yo'qolishi (davlat korxonalari xususiyashtirildi). Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirishdagi tengsizlik.	Kambag'allik darajasi 20% dan 15% ga tushirdi, lekin tengsizlik oshdi (Gini 0.32 dan 0.37 ga).
Hindiston	1991–2011	Shahar-qishloq orasidagi daromad tengsizligi. Oziq-ovqat va asosiy ehtiyojlar narxlarining oshishi - Malakasiz ishchilarning bozor foydasidan chetda qolishi.	Kambag'allik darajasi 36% dan 22% ga tushirdi, lekin tengsizlik oshdi (Gini 0.34 dan 0.40 ga).
Vetnam	1993–2010	Malakasiz ishchilarning iqtisodiy o'sish foydasidan chetda qolishi. Sog'liqni saqlash xarajatlarining oshishi. Qishloq joylarda infratuzilma cheklavlari.	Kambag'allik darajasi 58% dan 14% ga keskin tushirdi, tengsizlik o'rtacha oshdi (Gini 0.36 dan 0.39 ga).

Bizningcha, O'zbekistonda Xitoy tajribasini ba'zi bir yo'nalishlarini qo'llash mumkin, masalan Xitoyda kambag'allikni keskin kamaytirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirildi: hududiy-maqсадli dasturlar (har bir viloyat, tuman uchun alohida strategiya); ishlab chiqarish klasterlari (qishloqda sanoat va xizmat sohasi bilan integratsiya); infratuzilmani rivojlantirish (yo'l, suv, elektr, internet); aniq adresli ijtimoiy yordam (har bir oila va shaxsning raqamli reyestri); ta'lim va kasb-hunarga investisiya; mahalliy biznes va kooperatsiyalarni qo'llab-quvvatlash; xususiy sektor va davlat sherikligi (PPP). Xitoy tajribasidan olinadigan asosiy yo'nalishlarini kompleks yondashuv, ijtimoiy nafaqa bilan cheklanib qolmasdan, ish o'rni va infratuzilmaga e'tibor berish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, samaradorlikni nazorat qilish, mahalliy aholi va tadbirkorlarni dasturlarga jalb etishni O'zbekistonning milliy, demografik va iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirish orqali qo'llash mumkin. Buning uchun hududiy rivojlanish klasterlari, raqamli reyestr, targetli yordam va ta'limni kuchaytirish asosiy yo'nalishlar bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirishda mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini inobatga olish, mehnat unumdorligiga nisbatan daromalarni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi ekan.

Dissertatsiyaning **“Kambag'allikni qisqartirish dasturlarining bajarilishi mexanizmining moliyaviy siyosatga tayanishining metodologik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida moliyaviy siyosatga uyg'unlashtirilgan holda kambag'allikni qisqartirish dasturlarini ishlab chiqilishi tashkiliy mexanizmi, kambag'allikni qisqartirish dasturlarini moliyaviy ta'minoti, kambag'allikni

¹² <https://kun.uz/kr/79308846?q=%2F79308846>

qisqartirish dasturlarini umumiyqisodiy, moliyaviy va ijtimoiy natijalari, kambag'allikni qisqartirishda aholining dasturlariga nisbatan munosabatini baholashning moliyaviy rakursi tahlil qilingan.

Moliyaviy siyosat orqali jamiyatdagi eng dolzarb vazifalar bajarilishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Moliyaviy siyosat, bir tomondan, moliyaviy resurslarni shakllantirish va yo'naltirish, ikkinchi tomondan esa, iqtisodiy manfaatlarga ta'sir etish quroli bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy siyosatning metodologik asosini kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlarini moliyalashtirishda qo'llanadigan nazariy yondashuvlar, moliyalashtirish mexanizmlari, baholash mezonlari, boshqaruv instrumentlari va hisobot standartlarini anglatadi. Bizning fikrimiz bo'yicha moliyaviy siyosatning metodologik asosini takomillashtirish uchun qo'yidagi asosiy yo'nalishlarini qo'llash zarur: hududiy differensiasiyalangan yondashuvni qo'llash, raqamli monitoring va audit mexanizmini qo'llash; natijaviylikka asoslangan moliyalashtirish; davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish; innovasion moliyalashtirish vositalaridan foydalanish; integrasiyalashgan byudjetlashtirish.

Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini moliyaviy siyosatga uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy mexanizmi O'zbekiston Respublikasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, vazirliklar va idoralarning muvofiqlashtirilgan faoliyati, shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribaga asoslanadi (4-jadvalga qarang). Moliyaviy siyosat ishlab chiqilishida joriy davrda va istiqbolda moliyaviy munosabatlardan, moliyaviy resurslardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va omillari aniqlab qo'yiladi. Bunda faqat ichki omillargina emas, balki xalqaro omillar ham, moliyaviy resurslarni tashqaridan jalb etish imkoniyatlari hisobga olinadi. Shu orqali moliyaviy siyosat iqtisodiy siyosatda ko'zda tutiluvchi o'rnatilgan maqsadlarga erishishga, jumladan kambag'allikni qisqartirish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

4-jadval
